

“XABEAS KORPUS” INSTITUTINI O‘ZBEKISTON
QONUNCHILIGIDA TUTGAN O‘RNI

O‘rmanova Muxlisa Dilshodjon qizi

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Yurisprudensiya 4-108-guruh talabasi

Telefon: +998(97) 021-04-28

muxlisaormanova13@gmail.com

Anontatsiya: bu maqolada Xarbeas korpus institutining kelib chiqish tarixi, uning rivojlanishi, asosiy mazmuni va yurtimiz qonunchiligida tutgan o‘rni haqida fikr – mulohazalar va ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: demokratik, modda, konsepsiya, deklaratsiya, norma, Xarbeas korpus, xalqaro huquq va revolyusiya.

“O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat”. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 1 – moddasidayoq, O‘zbekiston davlati haqida qisqacha mazmunda so‘z yuritiladi. Ha, yuqori keltirib o‘tilgan ilk moddamizdani o‘zida davlatimizning boshqaruv shakli va asosiy funksional yo‘nalishlari keltirilgan. Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizning har bir moddasi va normasida inson huquq va erkinliklarini davlat tomonidan himoya qilinishi o‘z aksini topgan. Bu borada yurtimizda yangidan – yangi qaror va farmonlar ham qabul qilinmoqda. Vaholanki, yurtimizdagi qonun va qarorlarni xalqaro miqyosda qabul qilinayotgan konsepsiyalarga kvalifikatsiya qilish jarayoni ham o‘z o‘rnida bormoqda. Jumladan qabul qilinayotgan qonunlarda, inson huquqlari himoyasiga doir kafolatlar va ular zamirida esa asosiy g‘oya – inson huquq va erkinliklarini ustuvorligi e’tirof etilmoqda. Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizda inson huquqlariga oid normalarning 3 barobar oshgani ham buning isbotidir. “Xabeas korpus” va “Miranda qoidasi” institutlari ham qonunchiligimizdagi yangi normalar ya’ni kafolatlardir. Xabeas korpus o‘zi nima? “Xabeas korpus” bu hozirgi kunda barcha davlatlar qonunchiligida amal qilayotgan asosiy qoidalardan biridir. “Xabeas korpus” (lotincha habeas corpus) so‘zi “tanani sudga keltirish” degan ma’noni bildiradi¹. Bu so‘zning tarixiga qaraydigan bo‘lsak, Anglo – sakson huquq oilasining muhim institutlaridan biri hisoblanib, dastlab faqat milliy huquqda paydo bo‘lgan va keyinchlik xalqaro huquq tizimiga kiritilgan. Jumladan xalqaro huquq tizimiga kirishiga ham sabab, inson o‘z haq – huquqini sud orqali himoya qilishga haqlidir. Bu institutning ham bosh g‘oyasi inson buzilgan huquqlarini sud orqali himoya qila olishidir. “Xabeas korpus” so‘zi asli sudyaning

¹ <https://www.norma.uz>

ozodlikdan mahrum etilgan shaxsni sudga olib kelish to'g'risidagi so'zlaridan paydo bo'lgan ya'ni "Habeas corpus and subjiciendum". Bu tizim osonlikcha milliy huquq tizimiga ham kirib qolmadi. Vaholanki, bu institut XV asrdayoq paydo bo'lgan bo'lsa ham 1679 yil 26 may kuni Angliya parlamenti tomonidan qonuniy rasmiylashtirildi. Dastlab bu tizim shaxslar, asosan feodallar va ularga bo'ysunuvchilar tomonidan buzilgan erkinlikni tiklash vositasi sifatida foydalanilgan, ammo Genrixa VII davridan boshlab u qirol tomonidan shaxsni kuzatib borish uchun qo'llanilgan.² Bu "Xabeas korpus" aktini qabul qilish ham parlament tomonidan juda ko'p rad etilishlarga sabab bo'ldi. Ular bu akti qabul qilmaslikka harakat qilishdi. Chunki ularga bu tizim faqat qirolni kuzatish uchun bo'lsa yaxshidi. Uni chiqarish esa sudyalarning qo'lida bo'lib, bu sudyalarning mustaqilligi o'z qo'llarida emas edi. Ya'ni o'zlari mustaqil bo'lmagan sudyalarning tomonidan farmon chiqarilgan. Sudyaning buyrug'ini bajarmaslik hech qanday javobgarlikka tortilmagan. Shuning bamisoli, qonun ham adolat ham kimda ustuvorlik bo'lsa, shunda bo'lgan. Bunday holat ayniqsa, Tyudorlarning va Styuartlarning humkronligi davrida avj oldi. 1627 – yilda qamoqqa olingan mashhur siyosatchi J.Xempdenning va 1628 – yil 29 – martda Jamoat palatasi revolyusiyasining qabul qilinishida g'azablarga sabab bo'ldi va juda katta shov – shuvga aylandi. Unda shunday deyilgan edi:

“Hech bir ozod odam qamoqqa olinmaydi yoki hibsdan ushlab turilmaydi. Qirol va Maxfiylik Kengashining buyrug'i bilan hech kimning ozodligi hech qanaqasiga cheklanishi mumkin emas... hibsga olish yoki ozodlikni cheklash uchun qonuniy sabablar ko'rsatilmasa. Agar ozod shaxs qamoqqa olinganda yoki hibsdan ushlab turilganida, qonuniy sabab ko'rsatilmagan bo'lsa va bu shu shaxsga berilgan xabeas korpus asosida aniqlansa, u butunlay ozod etiladi yoki garov evaziga ozodlikka chiqadi”³

Bu kabi revolyusiyalar 1628 – yilda huquq to'g'risidagi petitsiyaga kiritilgan. Nihoyat, 1679 – yilda shaxs manfaatlarini qirollik va mansabdor shaxslar o'zboshimchaliklaridan himoya qiladigan akt – "Xabeas korpus" akti rasman qabul qilindi.

Britaniyalik huquqshunos Albert Vann Disi(1835-1922) 1679 –yilda qabul qilingan bu Xabeas korpus aktini "hech qanday prinsiplarni anglatmaydi va huquqlarni belgilamaydi, ammo amaliy nuqtayi nazardan ular shaxsning huquq erkinliklarini kafolatlaydigan yuzlab konstitutsiyaviy moddalarning o'rnini bosa oladi"⁴ deb yozgan edi.

Xabeas korpus instituti davlatimizda 2008 – yildan boshlab huquq tizimiga kirgan. Bu institut yildan – yilga rivojlanib bormoqda, tergov jarayonlari ustidan sud nazoratlari kuchaytirilishi buning isbotidir. Buning doli naznida 2008 – 2016-yillar

² <https://yuz.uz>

³ <https://yuz.uz>

⁴ <https://yuz.uz>

davomida qator majburlov choralarini qo‘llash vakolatlari sud ixtiyoriga o‘tkazildi. Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizning tegishlicha normalariga asosan, telefon va telekommunikatsiya qurilmalari orqali so‘zlashuvlarni eshitib turish, tintuv va mulkni xatlash kabi huquqlarimiz faqat qonundan belgilangan hol va tartibdagina shunda ham faqat va faqat sudning qaroriga ko‘ra cheklab qo‘yilishi mumkinligi belgilab qo‘yildi. Shuningdek, fuqarolarning shaxsiy hayot, uy –joy va xususiy mulk kabi daxlsiz huquqlari ham mustahkamlanib bormoqda. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12 – moddasiga ko‘ra, “hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o‘zboshimchalik bilan aralashish, uy –joy daxlsizligiga, uning yozishmalardagi sirlarga yoki uning nomus va sha’niga o‘zboshimchalik bilan tajovuz qilinishi mumkin emas”⁵ligi belgilangan.

Xulosa qilib aytganda, Xarbeas korpus instituti yurtimiz qonunchligi tizimida tutgan o‘rni beqiyosdir. Chunki bu institut tufayli inson huquqlari yana bir marta kafolatlanganligini ko‘rish mumkin. Bu institut yildan – yilga rivojlangani sari inson huquqlarini himoya qilish tizimining mexanizmi ham yangi va samarali bo‘lib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiya – BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948 – yil 10 dekabrda qabul qilingan(30 ta moddadan iborat).
2. <https://yuz.uz> sayti
3. <https://www.norma.uz> sayti
4. <https://uzbekembassy.com.my> sayti

⁵ Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiya – BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948 – yil 10 dekabrda qabul qilingan(30 ta moddadan iborat).